



QADIMGI TURKIY TILLARDA SO‘Z TURKUMLARINING IFODALANISH SHAKLLARI(SO‘ZLARNING YASALISHI, KELISHIK KATEGORIYALARI TASNIFI)

Oqmonova Sevinchoy Olloyor qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8180936>

ARTICLE INFO

Received: 16th July 2023

Accepted: 24th July 2023

Online: 25th July 2023

KEY WORDS

Tillar tasnifi, kelishik kategoriyalari, gramatik ma‘no, morfologik struktura, o‘zak, qadimgi turkiy til davri, so‘z tarkibi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Turkiy tillarda qo‘llaniluvchi so‘z va iboralar izohi yuzasidan fikr va mulohazalar yuritilgan. Til aholining kundalik turmush tarzi va yashash sharoitiga monan tarzi o‘zgarib borishi so‘zlovchi va tilovchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ham amalga oshiriladi. Bunda, so‘z yasash so‘zlarning morfologik jihatdan tahlil qilinishi va analizga tortilishida tarixiylik va hozirhi kun masalalarida amalga oshirilayotgan qo‘shimchalar tasnifini ham inobatga olish lozim. Turkiy tillarda so‘zlar va qabilalar o‘rtasidagi munosabatlar natijasida shakllanish va turli xil lahjalar vositasida o‘zgarishlarga uchrashi mumkin.

Matn va davr o‘rtasidagi munosabat o‘zgarib borishga uchrashi turli xil holatlarda ijtimoiy vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Ushbu holat so‘zlarning tarkibida yasovchi so‘zlar va tub so‘zlarning qo‘llanishi vositasiga ko‘ra mustaqil so‘z turkumlarining ot, sifat, son, fe‘l va boshqa turkumlarga bo‘lishiga ko‘ra ahamiyat talab qilinadi. Asosan kundalik turmush tarzida ishlatilgan so‘zlar predmetlar, voqea hodisaga nisbatan munosabat va xatti-harakatlarini bildirishiga ko‘ra ko‘proq ot, fe‘l vasifatlarin ifodalab keladi. Bunda, so‘zning tarkibi leksik va ijtimoiy holatdan kelib chiqib grammatik ma‘nolarni anglatuvchi turli xil so‘z shakllari, xususiyatlari va komplekslaridan iborat. Leksik ma‘noning saqlangan holda so‘z shakllarining o‘zgarib borishi ham davr va muhit ijtimoiy holatning tasvirlaridan yuzaga keladi. Umumiy qilib aytganda, o‘rta osiyo hududda yashovchi barcha xalqlar turkiy tillarda, yozma yodgorlik manbalarida foydalangan shakllarda ham so‘zlash qobiliyatining bir xilligi bilan fe‘lli so‘z qo‘shimchalarining ko‘p qo‘llanilishi natijasida o‘zgarib turadi. So‘zlarning affiksatsiya usuli natijasi yasalishi so‘zlarning ichki va tashqi o‘zaro qobiqlarining har tomonlama semantik jihatdan birlashuvi natijasida ham hosil bo‘ladi. Ushbu holat asosan, qo‘shma so‘zlar va ularning qo‘shilishidan yasalgan, hosil bo‘lgan so‘zlarning qo‘llanish darajasi va analitik usulidan talqin qilinishi turkiy xalqlar tillarida qo‘llanuvchi so‘z va kelishik, qo‘shimcha kategoriyalarini ham ifodalab beradi. Qadimgi turkiy tillarda so‘z turkumlarining ifodalanishi shakllar ya‘ni so‘zlarning yasalishi kelishik qo‘shimchalari kategoriyalari tasniflanishi ham muhim vosita sanaladi. So‘zlarni juftlashtirish orqali bir-biri bilan takrorlash orqali hamda o‘zato qo‘shimcha qo‘shish natijasida o‘zgartirish orqali ham



yasash mumkin. "So'z tarkibi deyilganda, o'zak, negiz hamda so'zning sintaktik munosabatini ta'minlovchi turli qo'shimchalarning birligi, so'zning morfologik, tizimi (strukturasi) tushuniladi. So'zlar tarkibini tahlil qilishda, avvalo, leksik hamda gramatik ma'no anglatuvchi komponentlarni ajratib olish lozim. So'z tarkibi leksik hamda gramatik ma'no anglatuvchi komponentlar birligidan iborat bo'ladi. So'zning leksik ma'no bildiruvchi komponentlariga o'zak hamda negiz kiradi. O'zak - so'zning eng kichik leksik ma'noli bo'lagi. Negiz esa so'zning ma'nosini bildiruvchi, eng katta leksik ma'noga ega bo'lgan bo'lagidir".[1]

Bunda, so'z turkumlari va otning yasalishi borasidagi qarama-qarshiliklar morfologik usulda hosil bo'ladi. Birinchisi ismlardan, otli so'zlardan yasalgan so'zlar, fe'lli so'zlardan yasalgan so'zlar bilan ifodalanishi mumkin. Bugungi kunda biz harakat nomida ifodalaydigan - mak, moq, uv, ish qo'shimchalarini oluvchi so'zlar ham otlarni tashkil etadigan. Misol uchun: Oquv, biluv kabi. Ko'plik qo'shimchasining turkiy turlarda gramatik jihatdan qo'llanishi asosan, -lar qo'shimchasi bilan asoslangan va lar tushunchasi davr va muhit nuqtai nazardan o'zgarib bordi. Otlarda ko'plik qo'shimchasining izohlanishi ya'ni ma'noni kuchaytirilishi bilan ortiq ekanligi sanash ohangi bilan ifodalanadi. Qadimgi turkiy tilda qo'llanishiga ko'ra so'z va iboralar ham vosita ma'nosini ifodalashda xizmat qiladi. Turkiy tilning o'zaro mutanosibligini oshirishda so'zlarning turli xil qo'llanilishi bu borada sinonimik va antonimik munosabatlari bilan birga ifodalanilayotgan mazmunning ochilib berilishida chiroyli va mantiqli so'zlardan foydalanish anglashilayotgan, fikrning yetkazib berilishida so'z va iboralarning o'rni katta.

Turkiy tillar xalq tarixida ko'plik ma'nosini bildiruvchi qo'shimchalarda - z, lar kabi qo'shimchalar qo'shilishi, ma'no orttirilishi bilan ifodalaniladi. Egallik qo'shimchasining ham turkiy tillarda so'zlarda qo'shilishi natijasida tinglovchining ko'plik shaklida boringiz, kelingi, shaklida bir necha shaxsdan iborat ekanligi ham anglab olish, ularni yozma yoki og'zaki tarzda ifodalash qiyin emas. Kelishik qo'shimchalari ham maxsus oltita kelishik qo'shimchalarining o'zgargan va turlangan tartibda qadimgi turkiy xalqlar hayotida qo'llanilishi ham kuzatiladi. Qaratqich kelishigi mening, menun kabi shakllarda kelishi, tushum kelishigida esa -g, ik, n, in kabi qo'shimchalar bilan ham izohlaniladi. Chiqish kelishigining ham ifodalanishida -dan, tan, din, tin, dun kabi shakllarda so'zlarga qo'shiladi. Bugungi kunda esa faqatgina, jamoaviy-adabiy til vositalaridan, uslublarida dan shaklining qo'shilishi, yozuvda ham ifodalanilishi ham kuzatilib kelinmoqda. "A. Kanonov, Y. Polivanov, K. Yudaxin, D. Klason, A. Borovkov, N. Bashokov, K. Menges, Y. Ekman, S. Mutallibov, A. Rustamov, V. Reshetov, M. Asqarova, O. Usmonov, Shu. Shukurov, A. Muxtorov, B. Bafoyev, H. Ne'matov kabi qator olimlarining hissalarini beqiyos. Bir qator olimlar o'zbek adabiy tili tarixini 4 davrga bo'lib o'rganadilar: Jumladan, tilshunos olimlardan biri hisoblangan O. Usmonov o'zbek tili tarixini 5 davrga bo'lgan:

1. Qadimgi turkiy tili davri (VI- IX)
2. Qadimgi o'zbek tili davri (IX-XII)
3. Eski o'zbek tilining ilk davri (XIII- XIV asrlar)
4. Eski o'zbek tili (XIV-XIX asr)
5. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili".[2]

Qadimgi turkiy tilda so'zlarning ifodalanishida bugungi kunga qadar o'zgaruvchanlik hodisasi kuzatiladi. Shuningdek, tovush tushishi, tovush o'zgarishi hodisalarining va boshqa j lovhlik, y lovhlik toifalarga ham amal qilinib kelinmoqda. Bugungi kunda kundalik turmush



sharoitimizda ishlatiladigan predmet, hayvonlar yoki voqea hodisalarga nisbatan faol ishlatiladigan nomlardan kelib chiqiladi. Misol uchun: ilon soʻzining yilon, yerning jer shaklida talaffuz qilinishi. Qadimgi turkiy tillarda olmoshlarning ifodalanishi ifodaviy qoʻllanilishi soʻzlovchining fikr ifodalovchi shaxsga nisbatan munosabati bildiriladi. Ushbu holat ban,bin, bini, banin, bandan kabi tarzda amalga oshiriladi, bugungi kunda rsa men tarzda adabiy-badiiy soʻzlarda qoʻllaniladi. Biz, bizin, bizdin, bizga kabi shakllar ham mavjudligi yuzasidan qoʻllanilish holatlari ham mavjud.

Harakat-holatning bajarilishida tinglovchi va bajaruvchi shaxslar oʻrtasidagi munosabatlar ifodalanishida feʼllarning turli xolatlar bilan voqeligi munosabat bildiradigan asosaniy lahjalarda qoʻllanilivchi soʻzlar, ifodalarning kelishik shakllarini foydalanishi feʼni hosil qiluvchi qoʻshimchalar ham mavjud ekanligi bilan izohlanadi. Feʼllarning koʻp holatlarda buyuruq shakllari boshqaruv shaklda xizmat qilayotgan kishilar, saroy amaldorlari yoki muhim lavozimda xizmat qilayotgan kishilar nutqi bilan ifodalanadi. Ushbu holatlarda asosan, axborot oluvchi va tinglovchiga nisbatan xitob maʼnosini anglashilishida qilgʻil yoki qilinsin, bajarilsin shakldagi bugungi rasmiy uslubda anʼanaviy shaklda amalga oshiriladi. Bugun kuni oʻzbek adabiy tilida feʼl nisbatlari ham mavjud boʻlib, majhul nisbat tomonidan ifodalaydigan maʼno xususiyatlari oʻtgan davr turkiy tillar xalqlarning tillari bilan oʻzaro aloqadorlikni saqlagan holatda ifodalanadi.

References:

1. Nasimxon Rahmonov, Qosimjon Sodiqov. Oʻzbek tili tarixi. Oʻzbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun darslik. Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashryoti. Toshkent - 2009
2. Qaxxarov Shuhratbek. Til - xalq tarixining solnomasi. Academic research in educational sciences – 2022.